

# **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti texnoparkidagi yana bir ishlanma...**

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti texnoparki bazasida MChJ "IDEA IMPEX" ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi bosh texnolog tomonidan onkologik kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan "TOR (operativ reabilitatsiya texnologiyasi)" terapevtik apparati ishlab chiqildi.

Ushbu qurilmaning samaradorligini tasdiqlash maqsadida, 12 oy davomida hayvonlarda sinov ishlari olib borildi va natijalari shuni ko'rsatdiki, elektromagnit to'lqinlar ta'sirida 100% rad etish bilan o'smalar kamaygan. Komissiyaning xulosasi: qurilma immunomodulyatsion ta'sirga ega bo'lib, organizmning adaptiv reaksiyalarini rag'batlantiradi, shu bilan birga tanaga salbiy ta'sirlari aniqlanmagan.

O'tgan yilning avgust oyidan boshlab "TOR" terapevtik apparatining klinik sinovi ishlarini insonlarda, bemorlarning ixtiyoriy roziligi bilan, o'tkazish boshlandi.

Muvaffaqiyatli klinik sinovlardan so'ng apparatni tibbiy amaliyotga joriy etish dalolatnomasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent va Buxoro filiallari tomonidan tasdiqlandi.

Farmatsevtika qo'mitasi tomonidan 20.03.2020 yildagi TT /M 00383/03/20- raqamli tibbiy asbob-uskunalarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va 02.06.2020 yildagi 2443246-sonli muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi, shuningdek, qurilma INNOWEEK-2019 ko'rgazmasida qatnashdi va onkologiya sohasidagi eng yaxshi yechim sifatida sertifikat bilan

**taqdirlandi.**

Joriy yilning iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik shifoxonasi bazasida ushbu qurilmani immunomodulyator sifatida koronavirus infeksiyasiga chalingan bemorlarni davolash uchun sinov ishlari boshlandi. Birinchi test natijalariga ko'ra, terapiyaning 8-seansidan so'ng, PZR tahlillari koronavirus infeksiyasining mavjudligi boyicha salbiy natijani ko'rsatdi.

Yaqin kelajakda "IDEA IMPEX" MChJ ushbu qurilmani Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti texnoparki bazasida ishlab chiqarishni boshlash niyatida.

---

## **TTPU rektori Xalqaro press-klub sessiyasida ishtirok etdi**

Aziz do'stlar!

E'tiboringizga Xalqaro press-klubning "O'zbekiston Uchinchi Renessans bo'sag'asida" mavzusidagi sessiyada ko'plab ta'lim va madaniyat namoyandalari qatorida ma'ruzachi sifatida qatnashgan universitetimiz rektori J.Sh.Inoyatxodjaev bilan bo'lgan suhbatdan bir lavxani taqdim etamiz.

---

# **1 sentabr – Mustaqillik kuni bilan muborakbod etamiz!**

*Aziz vatandoshlar!*

*Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti barchangizni **0'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi bilan chin qalbdan muborakbod etadi!***

*Sizga va yaqinlaringizga sog'lik salomatlik, totuvlik va farovonlik, kelajagingiz va buyuk Vatanimiz ravnaqi yo'lidagi xayrli ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilaymiz!*

*Biz o'z vatanimiz bilan faxrlanamiz va kelajagimizga ishonch bilan qaraymiz! Shuning uchun ham biz yorqin bayramimiz – Mustaqillik kunini o'zgacha ishtiyoq va quvonch bilan nishonlaymiz.*

*Yurtimizda doimo tinchlik va osoyishtalik hukm sursin, osmonimiz doimo musaffo bo'lsin!*

***Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!***

---

## **Toshkent24TV: 2020-2021 o'quv yilida nimalar kutilmoqda?**

---

# Yangi MBA dasturining tanishtiruv videoanjumani bo'lib o'tdi

**Aziz do'stlar!**

Kecha, 25 avgust kuni, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetidagi Malayziyaning Putra biznes maktabi yangi MBA dasturining tanishtiruv videoanjumanida ishtirok etgan barchangizga minnatdorchilik bildiramiz!

Anjumanda qatnasha olmagan qiziquvchilar uchun quyidagi havolani taqdim etamiz: <https://youtu.be/-3v6DCN9Mbo>

Shuningdek, videoning ta'rifida dastur haqida batafsil ma'lumot ham berilgan.

***Arizalarni qabul qilish muddati joriy yilning 5 sentyabr kunigacha uzaytirildi!***

---

# ERAMCA Erasmus + loyihasi doirasida seminar-forum o'tkazilishi rejalashtirildi

*(2020 yil 13-fevral, Turin shahri, Italiya, ERAMCA ERASMUS + loyihasi bo'yicha uchrashuv).*

**Joriy yilning 15 sentyabr kuni** Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida ERAMCA Erasmus + loyihasi doirasida ehtiyojlarni tahlil qilish, atrof-muhit xavfini baholash va ularning Markaziy Osiyodagi madaniy meros ob'ektlariga ta'sirini kamaytirish bo'yicha seminar-forum bo'lib o'tadi.

Hamkor mamlakatlardan kelgan muhtaram ma'ruzachilar, tadqiqotchilar va ishtirokchilar universitet konferentsiya zalida yoki COVID-19 pandemiyasi tarqalishi sababli onlayn tarzda yig'ilish o'tkazishadi.

Agar siz ham vebinarda ishtirok etishni istasangiz, [bonu.azizova@gmail.com](mailto:bonu.azizova@gmail.com) ga murojaat qilishingiz mumkin.

**Batafsil**

**ma'lumot:**

<http://new.polito.uz/ru/obrazovanie/kafedry/6409-2/eramca-2/>

---

# **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TTPU) va Kembrij xalqaro kolleji (CIC) o'rtasidagi hamkorlik**

Bugun, 2020 yil 24 avgust kuni Toshkent shahdagi Turin politexnika universiteti (TPUT) va Kembrij xalqaro kolleji (CIC) o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Kelishuvning maqsadi – ta'lim, tadbirkorlikni birgalikda rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun ekotizimni yaratish va istiqbolli start-up loyihalarini amalga

oshirishdir.

### **Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari:**

1. Kollej filiallarida universitet talabalari uchun amaliyot va malaka oshirish ishlarini tashkil etish, malakali mutaxassislarni birgalikda tayyorlash;
2. Ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;
3. Abiturientlarni TTPUGa qabul qilish uchun tayyorlov kurslarini birgalikda tashkil etish ;
4. Mehmon ma'ruzalari va mahorat darslarini tashkil qilish;
5. Axborot platformalarida birgalikda promo-kampaniyalarini tashkil etish;
6. Forumlar, seminarlar, konferentsiyalar va brifinglar o'tkazish;
7. "Muammoli ta'lim" amaliyotini birgalikda amalga oshirish.

Bundan tashqari, ushbu hamkorlik ikki tomon kelishuvi asosida universitet malakali professorlari kollej o'quvchilariga mahorat darslarini taqdim etib, ularga International Foundation sertifikatini qo'lga kiritishda yordam beradilar. Ushbu sertifikatga ega bo'lgan talabalar TTPUda o'qishni 2-bosqichdan boshlab davom ettirishlari mumkin bo'ladi.

*Umid qilamizki, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TPUT) va Toshkentdagi Kembrij xalqaro kolleji (CIC) o'rtashdagi o'zaro hamkorlik ikkala tomon uchun ham katta imkoniyatlar ochib beradi va reja qilingan sohalarni rivojlantirishda katta qadam bo'ladi.*



---

## QABUL – UCHINCHI BOSQICH

### AJOYIB IMKONIYAT

To'g'ridan to'g'ri **IKKINCHI BOSQICHGA** qabul qilinish mumkinmi?  
Siz bunga **MUMKIN EMAS** deb javob berasiz.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti esa bunga  
**MUMKIN** deydi.

Endi sizda **UCH YIL** ichida oliy ma'lumotli bo'lish imkoniyati mavjud.

Turin universiteti O'zbekistonda Yevropa andozalariga mos, texnika yo'nalishida ta'lim olishni istovchilar uchun shunday imkoniyat berayotgan yagona universitetdir.

**BUNDAN TASHQARI, JORIY YILDA TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETINING BARCHA O'QUV YO'NALISHLARI BO'YICHA QO'SHIMCHA DASTUR (MASOFAVIY+SIRTQI) OCHILMOQDA.**

**MEHNAT FAOLIYATINGIZNI TO'XTATMAGAN HOLDA SIFATLI YEVROPA TA'LIMINI QO'LGA KIRITISH IMKONIYATINI BOY BERMENG.**

**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSI-TETINING 2020/2021 O'QUV YILI BAKALAVRIATIGA UCHINCHI BOSQICH QABUL-QOIDALARI VA HUJJAT TOPSHIRISH MUDDATI BIRINCHI BOSQICH QOIDALARIGA MOS KELADI ([ILOVA](#))**

### **Imtihon sanasi**

Uchinchi bosqich imtihoni **31 AVGUST** kuniga rejalashtirilgan edi. Mustaqillik bayrami munosabati bilan 31 avgust dam olish kuni deb rasman e'lon qilindi. Imtihon boshqa kunga ko'chirildi (sentabr boshiga). Imtihonning aniq sanasi keying hafta e'lon qilinadi.

**Imtihon universitet hududida OFFLAYN tarzda, karantin qoidalariga to'liq rioya qilgan holda (ya'ni, tibbiy niqob va tibbiy qo'lqopda bo'lish) bo'lib o'tadi.**

**Universitet manzili:** Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li 17, mo'ljal ASIA supermarketi (sobiq Nukus kinoteatri)

**Uchinchi bosqich imtihonida qatnashish uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

**SHART #1 – Onlayn ro'yxatdan o'tish**



Onlayn anketa to'ldirish ilovasi: [Onlayn ro'yxatdan o'tish](#)

ILTIMOS, ONLAYN ANKETANI TO'LDIRISHDA USHBU [YO'RIQNOMADAN](#) FOYDALANING YOKI VIDEONI TOMOSHA QILING.

[Videoga](#) ilova

1-shartdan o'tish majburiy bo'lib, abituriyentlar ushbu shartni amalga oshirmay 2-shartga o'ta olmaydilar!

SHART #2 – Qabul jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun, karantin paytida, 1-SHARTNI tugatgandan so'ng, ariza beruvchi (abituriyent) pasportining elektron nusxasini quyidagi manzilga yuborishi kerak: [admission.polito.uz](http://admission.polito.uz)

**Ikkinchi imtihonda (07 iyul) qatnasha olmagan abituriyentlar DIQQATIGA, Siz qaytadan 2-SHARTdan o'tishingiz kerak.**

**Onlayn test (on-line)**

Kirish imtihonlari test shaklida bo'lib, qiyinlik darajasi O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi darajasida bo'ladi.

Onlayn (on-line) test quyidagilardan iborat:

**Matematika:** 18 ta savol (40 daqiqa).

**O'qib tushunish:** 6 ta savol (12 daqiqa).

**Mantiq:** 6 ta savol (12 daqiqa).

**Fizika:** 12 ta savol (26 daqiqa)

Onlayn test umumiy **42 SAVOLDAN** iborat bo'lib, **90 DAQIQA** davom etadi. Barcha savollar **5** ta javob variantidan iborat bo'lib, ulardan **bittasi to'g'ri**.

Har bir javob quyidagicha baholanadi:

**1 ball**– agar to‘g‘ri javob tanlansa (1 ball qo‘shiladi)

**-0.25 ball** – noto‘g‘ri javob tanlansa (to‘plangan balldan 0.25 ball ayirib tashlanadi)

**0 ball**– javob tanlanmagan bo‘lsa (ball yo‘qotmaysiz)

**Barcha fanlar bo‘yicha test ingliz tilida o‘tkaziladi!**

### **Test natijalari**

Abiturientlar to‘plagan ballarini onlayn test yakunida bilib oladilar. Abiturientlarning to‘liq ro‘yxati to‘plagan ballarning (imtihon natijalarining) foiz ko‘rsatkichidagi ketma-ketligi bo‘yicha, kirish testidan keyin bir hafta ichida e‘lon qilinadi.

**Certificates considered equivalent to the admission test** (the following number refers to the grading equal to or higher than the threshold: 60/100)

**GRE** (General Test) with a minimum score of 153 in the “Verbal” section and 144 in “Quantitative” section and any score in the “Analytical Writing” section

**GMAT** with a minimum score of 500 in the two sections “Verbal” and “Quantitative”, with any score in the “Analytical Writing” section.

**SAT** *SAT Reasoning test* (section “Evidence-Based Reading and Writing” and section “Math” with a minimum score of 500 points in each section) and *SAT Subject Test* (section “Physics Level 1 or 2” and section “Mathematics Level 1 or 2” with a minimum

score of 500 points in each section). The two sections “Evidence-Based Reading and Writing” and “Math” of the SAT Test can be replaced by the ACT Test with a minimum score of 20.

## **Ingliz tili sertifikati**

**COVID-19 KARANTINI TUFAYLI, BIRINCHI BOSQICHGA QABUL QILINGAN ABITURIYENTLAR IELTS SERTIFIKATLARINI O‘QUV YILI DAVOMIDA TAQDIM ETISHLARI MUMKIN.**

TTPU bakalavriyatining ikkinchi bosqichida taxsil olish uchun 5.5 yoki undan yuqori bo‘lgan IELTS sertifikati (akademik) talab qilinadi. **COVID-19 KARANTINI TUFAYLI, IKKINCHI BOSQICHGA QABUL QILINGAN ABITURIYENTLAR IELTS SERTIFIKATLARINI 2020 YIL OHIRIGA QADAR TAQDIM ETISHLARI MUMKIN.**

IELTS sertifikati (akademik) o‘rniga ekvivalent sifatida tan olinuvchi sertifikatlar ro‘yxati:

<https://didattica.polito.it/cla/en/certificates>.

## **TTPU da ta‘lim olish uchun to‘lov miqdori.**

Bir akademik yil Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida ta‘lim olish uchun to‘lov miqdori **28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so‘mni** tashkil etadi.

## **O‘qish to‘lovi.**

Barcha bakalavr kurslari uchun 1 akademik yilining o‘qish to‘lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so‘mni tashkil etadi.

## **QO‘SHIMCHA MA‘LUMOT UCHUN**

Ariza berish jarayoni va boshqa savollar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga quyidagi elektron manzil bo'yicha murojaat qiling:

E-mail: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz)

Tel: +99871 246-63-48, +99871 246-80-51, +99871 246 80 52

---

# **Qurbon hayit bilan chin dildan muborakbod etamiz!**

*Aziz vatandoshlar!*

*Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti jamoasi sizlarni Qurbon hayit bilan chin dildan muborakbod etadi.*

*Qodir Tangriga bo'lgan muhabbat va mehr-oqibat tuyg'usi qalbimizda hamisha saqlansin.*

*Alloh bizni ofatlardan asrasin va barcha ezgu ishlarimizda yordam bersin!*

*Har bir xonadonda, har bir mamlakatda, butun dunyoda sog'lik-salomatlik, tinchlik-hotirjamlik hukmron bo'lsin!*

---

# **Toshkentdagi Turin politexnika universiteti talabalari tomonidan O'zbekistonda birinchi robot- yordamchisi ishlab chiqildi.**

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari tomonidan yaratilgan universal NovAssistant roboti Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshidagi Innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish ilmiy-amaliy markazi ko'magida ishlab chiqildi.

Ushbu loyiha jamoasi a'zolari Daler Mardonov (loyiha rahbari), Saidakbarxon Po'latov (dasturchi), Saidazizxon Saidaloyev (dizayner), Saidaloxon Ergashxojazoda (mexanik).

Ushbu robotni yaratishdan maqsad tibbiyot, tadbirkorlik, ta'lim, turizm kabi sohalarda kundalik ishlarni osonlashtirish, shuningdek, nogironlarga yordam berishdir.

Ushbu robotning qobiliyatlari nafaqat aloqa va hissiyotlarni ifoda etishdan iborat, balki korxonada yoki uy ishlariga yordam berishni ham o'z ichiga oladi. Buyurtmachining iltimosiga ko'ra qo'shimcha funktsiyalarni ishlab chiqish ham mumkin, masalan, sun'iy intellekt, yuzni aniqlash va bino ichida boshqarish funktsiyasi. Robot ovozli signal yoki dastur orqali boshqariladi.

Chet elda robot yordamchilarining o'rtacha narxi 180 million so'mni tashkil etadi. Mahalliy robot yordamchilarining narxi konfiguratsiyasiga qarab taxminan 25-45 million so'mni tashkil etadi.

---

# Malayziyaning Putra Biznes maktabi Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti bilan hamkorlikda MBA “Biznes Boshqaruvi Magistri” (MBA) mutaxassisligiga o‘qishga qabul qilishni boshladi.

[Malayziyaning Putra Biznes Maktabi](#) Malayziya Putra universiteti qoshidagi maktab hisoblanadi. Jahon universitetlari QS reytingi bo‘yicha, Malayziya Putra universiteti 132-o‘rinni egallaydi.

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti bilan hamkorlikda faoliyat boshlangan [Malayziyaning Putra Biznes Maktabi](#) Master of Business Administration ([MBA: General Management](#)) o‘quv dasturi asosida talabalarni qabul qilish jarayoni boshlanganligini ma’lum qiladi.

Barcha fanlar Malayziyalik professorlar tomonidan ingliz tilida Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetida olib boriladi. O‘quv dasturi davomiyligi **18 oy (5 semestr)**. Sohada faoliyat olib borayotgan xodimlar uchun kechki dasturlar ham tashkil etiladi.

Malayziyaning Putra Biznes maktabi MBA dasturi AQSh ning [AACSB](#) akkreditasiya agentligi tomonidan akkreditasiyalangan.

Jahonning **5% dan kam** biznes maktablari ushbu akkreditasiyani olishga erishgan, bu MBA dasturi sifat darajasining yuqori ekanligini kafolatlaydi. Ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar "Umumiy boshqaruv" mutaxassisligi bo'yicha Putra Biznes maktabi MBA magistri diplomini qo'lga kiritadi.

Ta'lim uchun umumiy to'lov kontrakt qiymati 8000 AQSh dollari. Malayziyaning Putra Biznes maktabi tomonidan O'zbekiston fuqarolariga **20%** imtiyoz va Turin politexnika universiteti tomonidan **200 AQSh dollari** imtiyoz beriladi. Umumiy hisobda, ta'lim uchun **6200 AQSh dollari** ((bir o'quv yili uchun **3100 AQSh dollari**) to'lanadi. To'lov O'zbekiston milliy valyutasi so'mda amalga oshiriladi (AQSh dollarining so'mga nisbatan qiymati, Markaziy bank tomonidan to'lov amalga oshirilgan kunda belgilangan kursda hisoblanadi).

O'quv dasturi **2020 yil sentyabr oyidan** boshlanadi. O'qishga kirish uchun nomzodlardan **IELTS 6.0** va undan yuqori (bakalavr bosqichini xorijiy universitet filiallarida ingliz tilida o'qiganlar bundan mustasno) va bakalavr diplomi talab etiladi. Birinchi o'quv yilida IELTS sertifikatini bo'lmagan nomzodlar o'qishni boshlagandan keyin 6 oy muddatda IELTS 6.0 sertifikatini taqdim etishlari talab etiladi.

Nomzodlarga Malayziyalik professorlar tomonidan **20 avgust kuni** sinov darsi tashkil etiladi.

*Arizalarni topshirishning so'nggi muddati: 25.08.2020*

Iltimos, quyidagi hujjatlarni [o.mukhitdinov@new.polito.uz](mailto:o.mukhitdinov@new.polito.uz) elektron manziliga yuboring

- *Diplom nusxasi (bakalavr darajasi),*
- *Pasport nusxasi,*
- *Rezyume (CV),*
- *IELTS sertifikatini.*

*Ma'lumot uchun telefonlar: +998 99 8184424, +998 99 845 3748*

*E-mail: [o.mukhitdinov@new.polito.uz](mailto:o.mukhitdinov@new.polito.uz); [e76dilshod@gmail.com](mailto:e76dilshod@gmail.com)*

*Manzil: Toshkent sh., Olmazor tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi 17-uy.*

*Mas'ul shaxslar: Mavlyanov Dilshod, Muhitdinov Otabek.*

---

## **Universitet ma'muriyati va talabalar "oltin" talabalik davri tarafdori!**

Joriy yilning 21-iyul kuni Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rahbariyati va talabalar uyushmasi faollari o'rtasida Zoom platformasi orqali onlayn suhbat bo'lib o'tdi.

Ushbu konferentsiyada rektor vazifasini bajaruvchi Inoyatxo'jaev J.Sh., yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Ashurov A.A., Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Allamova G.A., Matbuot kotibi Ibrohimzoda N.B va universitet talabalari nomidan qatnashgan talabalar uyushmasi faollari so'zga chiqdilar.

Suhbat davomida talabalarning o'qish jarayoni haqida, ijod va san'at xonasini johozlash, shuningdek yozgi ta'til paytida iqtidorlar tanlovlarini o'tkazish va talabalarni o'qish davrida akademik va akademik bo'lmagan yutuqlari bo'yicha rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.



*Ko'rib chiqilgan barcha masalalar yaqin orada amalga oshirilishi kutilmoqda. Universitet ma'muriyati va talabalarning birgalikdagi faoliyati universitetda unutilmas "oltin" talabalik davrini tashkil qilish uchun katta qadam bo'ladi degan umiddamiz.*

---

## **Hurmatli abituriyentlar!**

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti noyob imkoniyat haqida e'lon qiladi.

Kirish imtihonlarida 70 dan yuqori ball to'plagan talabalar "O'zavtosanoat" AK va unga qo'shilgan korxonalar, shuningdek universitetning homiylik imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

Nomzodlarni saralash ikki bosqichda o'tkaziladi:

- 1. Universitetning maxsus komissiyasi bilan suhbat**
- 2. "O'zavtosanoat" AK raisi bilan intervyu**

Qayd etib o'tamizki, o'qishni tugatgandan so'ng, homiy talabalar korxonada ishlash majburiyatlariga ega bo'lishlarini unutmang.

Shuningdek, doimiy homiylikning asosiy sharti – fanlarda muvaffaqiyatsizliklar bo'lmasligi.

Barcha qiziquvchilar, iltimos, arizalaringizni a.tajimuratova@new.polito.uz elektron pochta orqali 2020 yil 1-avgustgacha topshiring.

Shoshiling, joylar cheklangan!

---

# Test javoblari

Hurmatli Abituriyentlar,

**KIRISH IMTIXONLARINI MUVAFFAQIYATLI TOPSHIRGANINGIZ BILAN  
TABRIKLAYMIZ!**

2020-2021 o'quv yili uchun qabul

wpDataTable with provided ID not found!

***Ushbu rasmiy xabarga diqqat bilan e'tibor berishingizni  
iltimos qilamiz!***

7-iyul kuni bo'lib o'tgan kirish imtihonining natijalariga ko'ra, natijalar 4 toifaga bo'lindi:

## **1-toifa:**

0.00 ballga teng va undan kam ballni qo'lga kiritgan Abituriyentlar Tayyorlov yili (Birinchi Kurs)dan o'qishga qabul qilinadilar. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun (faqat birinchi yil) to'lov pul miqdori 42 750 000 (qirq ikki million yetti yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi. Ushbu toifaga kiruvchi abiturientlar o'quv yili ohiriga qadar IELTS (minimum 5.5 ball) olib kelishlari shart.

## **2-toifa:**

0.00 dan (0.00 kirmaydi) 50.00 gacha ball to'plaganlar abiturientlar, IELTS sertifikatini mavjudligidan qat'iy nazar, Tayyorgarlik yiliga (= Birinchi kurs) qabul qilinadilar. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi. Ushbu toifadagi abiturientlar o'quv yili ohiriga qadar IELTS sertifikatini (minimum 5.5 ball) olib

kelishlari shart.

### **3-toifa:**

50.00 dan yuqori ball to'plaganlar, **12 yillik oliy ta'limgacha bo'lgan ta'limga ega\*\*** va IELTS sertifikatini (minimum 5.5) bo'lmagan abituriyentlar to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kursga qabul qilinadi (tayyorgarlik yilini o'tkazib yuborishadi), ular 2020 yil oxiriga qadar (ya'ni dekabrgacha)\* IELTS ingliz tili sertifikatini (kamida 5.5) taqdim etishlari shart ekanligini inobatga olgan holda. Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

*\*Agar abituriyent o'z vaqtida IELTS sertifikatini taqdim etmasa, u avtomatik ravishda (tayyorlov yiliga) 1-kursga o'tadi.*

### **4-toifa:**

50.00 dan yuqori ball to'plaganlar, **12 yillik oliy ta'limgacha bo'lgan ta'limga ega\*\*** va IELTS sertifikatini (minimum 5.5) bo'lgan abituriyentlar to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kursga qabul qilinadi (tayyorgarlik yilini o'tkazib yuborishadi). Ushbu Abituriyentlarga 1 Akademik O'quv Yili uchun to'lov pul miqdori 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

*\*\*Vazirlar Mahkamasining 132-sonli qaroriga muvofiq, oliy ta'limgacha 11 yillik ta'limni tugatgan (9 + 2) abituriyentlar, maktabgacha ta'limning ixtisoslashtirilgan o'quv guruhlarida bir yil majburiy bo'lishlari shart. Ikkinchi kursga qabul qilinish uchun ma'lumotnoma taqdim etishlari shart.*

### **Abituriyentlar uchun noyob imkoniyat:**

1-avgustgacha shartnomaning **TO'LIQ MIQDORINI (100%) BIR MARTADA** to'lagan abituriyentlarga kontrakt miqdorining **10%**

miqdorida chegirma beriladi. Bu imkoniyat barcha toifalarga tegishli.

3 va 4 toifadagi abituriyentlar, universitet bilan shartnoma tuzgandan so'ng, universitet va hamkorlari tomonidan ajratilgan GRANTlar (ushbu o'quv yili uchun), kontrakt summasining 25% dan 100% miqdorigacha qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nomzodlarning tanlanishi test sinovlari natijalariga qarab belgilanadi. Belgilangan tanlovdan so'ng, Grantlar suhbat orqali o'tkaziladi. Qabulning ushbu bosqichida 30 ta grant joylari mavjud. Talaba grantlari har yili, talabalarning o'qish jarayonida erishgan yutuqlariga qarab ko'rib chiqiladi.

Shartnomalarni rasmiylashtirish 2020 yil 12 iyul soat 09:00 dan boshlab amalga oshiriladi. **COVID-19 pandemiyasi tufayli, shartnomalar elektron shaklda elektron pochta orqali ham chiqariladi.**

**Qabul komissiyasining ishi bo'yicha mas'ul shaxslar:**

Rektor – Inoyatkhodjaev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullaev Farhod Baxromovich

Turin politexnika universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdagilardan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

**Abituriyent PASPORTI;**

**Abituriyent ota-onasining passport nusxalari.**

Har qanday savollar uchun 71 246-80-51

71 246-80-52

71 246-63-48 raqamlariga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

E-mail manzil: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz)

---

# Abiturientlar ro'yxati

## The list of applicants participating in ADMISSION test on July 7th

(If you have already registered and couldn't find your name on the list below, it is due to not completing the second step. You will have a chance to take the admission test in August. Your application is still considered active.)

Mamlakatimizdagi epidemiologik (COVID-19) vaziyatning yomonlashgani sababli barcha abiturientlar uchun imtihonlar online tarzda o'tkaziladi. #Uydaqoling

wpDataTable with provided ID not found!

## Remote Admission Test (TIL) instructions

To participate in the admission test, the student must have the following appropriate means:

- Personal computer/Laptop(Notebook) Windows 10 or Mac, equipped with a webcam
- Browser (for example Opera, Chrome, Firefox etc.)
- Network connection suitable for a video conference

In addition, it is mandatory to prepare the ID (identity document, preferably the same used during the registration

phase) before the beginning of the test and some blank pages with a good writing pen.

The start time of the test is the one published on your personal Apply page *Apply@polito*. It is mandatory for the student to prepare on time in order to meet the start time on the schedule and checking the functionality of the necessary devices.

A test simulation is available at a student's personal account and students are required to take the simulation a few days before the test in order to identify and solve any problem or critical aspect.

It is also important to remark that a lack of network connection for a long time period that does not allow the regular execution of the admission test may result in the cancellation of the test itself. Participating in the test implies the acceptance of the methods identified by the Politecnico of Torino, including the video recording to ensure the regularity of the TIL test performance.

#### **Before July 07:**

1. go to <http://apply.polito.it/>
2. select English language ("ENG" on the top right-hand side of the web page)
3. log in and insert your account information (i.e. username and password)
4. go to the section "TIL Engineering" (see the tabs on the left)
5. download the LockDown Browser
6. install the LockDown Browser (but DO NOT OPEN)
7. **go back to your personal account** – take the simulation of the test
8. click on "SIMULATE THE TEST" button and follow the instructions

**On July 07 at 11:00 and 14:00:**

1. go to <http://apply.polito.it/>
2. select English language (“ENG” on the top right-hand side of the web page)
3. log in and insert your account information (i.e. username and password)
4. go to the section “TIL Engineering” (see the tabs on the left)
5. click on “START THE TEST” button and follow the instructions
6. **during the exam AT ANY TIME DO NOT CLOSE THE LOCKDOWN BROWSER**

<http://test.polito.uz/wp-content/uploads/2020/05/Test-Instructions.mp4>

**THE APPLICANTS, WHO EXPERIENCE TECHNICAL ISSUES DURING THE ADMISSION TEST, WILL HAVE A SECOND CHANCE TO PARTICIPATE IN ADMISSION EXAM IN AUGUST**

---

**Toshkentdagi Turin  
politexnika universitetining  
birinchi prorektori  
universitetning rektor  
vazifasini bajaruvchisi etib**

# tayinlandi

O'zbekiston Respublikasi hukumatining (420-son 03.07.2020y.) qarori bilan Inoyatxodjaev Jamshid Shuxratullayevich Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining rektor vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Eslatib o'tamiz, bundan oldin ushbu lavozimni Salomov O'ktam Raximovich egallab kelgan. Joriy yilning 1 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga (PQ-4762-son, 29.06.2020 y.) binoan u oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari bo'lib tayinlandi.

Ushbu lavozimga tayinlanishidan oldin, Inoyatathodjaev Jamshid Shuxratullayevich 2016 yili Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti umumiy texnik fakulteti dekani lavozimida, 2017 yildan boshlab to hozirgi kungacha moliyaviy-iqtisodiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha birinchi prorektor lavozimida ishlab kelgan.

---

## Rektorlarni tayinlash marosimi

Joriy yilning 4 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 07.03.03 yildagi 420-sonli qaroriga binoan Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 2 ta oliy o'quv yurtlari: Ajou universiteti va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rektorlari nitayinlash marosimi bo'lib o'tdi.


Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi Abduvoxidov A.A., O'zbekiston Respublikasi Oliy



va o'rta maxsus ta'lim vaziri Majidov I.U., O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rin bosari Salomov U.R., O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari S.Buzruxonov va universitet vakillari ishtirok etdilar.

Marosim davomida Muratov Gayrat Azatovich Toshkentdagi Ajou universiteti rektori, Inoyathodjaev Jamshid Shuxratullayevich esa Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.





---

# O'zbekistonda yangi MBA dasturi tashkil etiladi

Malayziyaning [Putra Biznes maktabi](#) bilan hamkorlikda Toshkent shahrdagi Turin Politexnika Universiteti MBA dasturlarini joriy etish bo'yicha kelishuvga erishdi.

MBA (Biznes boshqaruvi magistri) dasturida muxandislik sohasida taxsil olgan universitet bitiruvchilari va hozirda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, tadbirkorlar va kasbiy o'sishga qiziqqan, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, strategik fikrlash, shuningdek sifat jihatdan kelajakda yangi rivojlanish bosqichini izlayotgan kadrlarni tayyorlash belgilandi.

Putra biznes maktabi AQSHning [AACSB](#) akkreditatsiya agentligi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan.

Putra biznes maktabi Malayziyaning Putra universiteti ([UPM](#)) qoshidagi maktab xisoblanadi. Jahonning [QS](#) TOP universitetlari reytingida UPM 132 o'rinni egallagan.



---

# **Ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda hamkorlik**

Joriy yilning 29 iyun kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TPUT) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazirligi huzuridagi Sanoat bozori va ishlab chiqarishdagi mehnat samaradorligini o'rganish markazi yosh olimlarning ta'limini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, o'quv dasturlari, izlanishlar va innovatsiyalarni takomillashtirishda o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi.

Hamkorlikning maqsadi – tomonlar o'rtasida ta'lim, fan, innovatsiya, mehnat unumdorligini oshirish, yuqori texnologiyali loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi texnologiyalarni sotish va zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratish sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish.

Uchrashuv davomida tomonlar hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilishdi va uning umumiy yo'nalishlarini belgilab olishdi. Umid qilamizki, tomonlarning birgalikdagi faoliyati ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va takomillashtirishda katta qadam bo'ladi.



---

# QABUL – IKKINCHI BOSQICH

**!UNIQUE OPPORTUNITY!**

Getting accepted directly to the second year? You say it is **IMPOSSIBLE**.

Turin Polytechnic University in Tashkent says **POSSIBLE**.

Now you have a unique opportunity to graduate in **THREE YEARS\***.

The University of Turin is the only university in Uzbekistan that provides such an opportunity for anyone who wishes to receive a technical European education.

**IN ADDITION, BLENDED LEARNING FOR ALL FIELDS OF STUDY OF THE TURIN POLYTECHNIC UNIVERSITY IS OPENING THIS YEAR. DO NOT MISS YOUR CHANCE TO GET A HIGH-QUALITY EUROPEAN EDUCATION AND AT THE SAME TIME TO PURSUE YOUR CAREER.**

**REGULATION ON ADMISSION – SECOND PHASE AND DEADLINES OF SUBMISSION OF DOCUMENTS FOR BACHELOR OF SCIENCE STUDY PROGRAMS IN TURIN POLYTECHNIC UNIVERSITY IN TASHKENT (TTPU) FOR THE ACADEMIC YEAR 2020/2021 CORRESPONDS THE RULES FOR [THE FIRST PHASE](#)**

## **Date of examination**

Exam of the second phase will take place on JULY 7, 11:00 and 14:00 Local Time (Registration deadline July 3). **This exam will be ONLINE; therefore, EVERY APPLICANT MUST HAVE PC/LAPTOP(on Windows 10) AND WORKING VIDEO CAMERA.**

**APPLICANTS WHO DO NOT HAVE TECHNICAL EQUIPMENT MAY TAKE THE EXAM AT THE TURIN UNIVERSITY. FOR THIS IT IS NECESSARY TO SPECIFY IT IN THE QUESTIONNAIRE COMPLETED IN THE SECOND**

## REGISTRATION STEP.

\* (In order to be accepted directly to the second year, one must have 12 years of pre-university education)

**To participate in the second phase exam, following steps are required:**

### STEP #1 – On-line Application

The Online application form is available at: [REGISTRATION](#)

PLEASE, READ THESE [Instruction](#) OR WATCH VIDEO HOW TO

FILL IN ONLINE APPLICATION. [video tutorial](#)

#### 1. [Admission Instruction\\_3](#)

Step 1 is mandatory and applicants cannot proceed to step 2, if step 1 is not completed!

STEP #2 – In order to ensure the transparency of the admission process, during the quarantine, after completing step 1 applicant must fill the second application form: [admission.polito.uz](#).

**Online test**

Knowledge of the applicant will be assessed by a set of online tests with multiple-choice questions, featuring a difficulty level that is adequate to the secondary school programs of Uzbekistan.

The Online Test consists of:

**Mathematics: 18 questions (time: 40 minutes)**

**Comprehension: 6 questions (time: 12 minutes)**

**Logic: 6 questions (time: 12 minutes)**

**Physics: 12 questions (time: 26 minutes)**

The full online test consists of **42 questions** and will last **90 minutes**. Each question has **5** possible choices, but **only one** of them is correct.

Every question carries:

**1 point** – if it is correct (you get 1 point)

**-0.25 points** – if it is wrong (you loose -0.25 points)

**0 points** – if it is left blank (you do not loose any points)

**All the questions will be in English!**

### **Exam results**

Applicants will know their results soon after the end of the online test. The full list of the candidates ranked with percentage of their results will be announced within a week after the admission test.

**Certificates considered equivalent to the admission test** (the following number refers to the grading equal to or higher than

the threshold: 60/100)

**GRE** (General Test) with a minimum score of 153 in the “Verbal” section and 144 in “Quantitative” section and any score in the “Analytical Writing” section

**GMAT** with a minimum score of 500 in the two sections “Verbal” and “Quantitative”, with any score in the “Analytical Writing” section.

**SAT** *SAT Reasoning test* (section “Evidence-Based Reading and Writing” and section “Math” with a minimum score of 500 points in each section) and *SAT Subject Test* (section “Physics Level 1 or 2” and section “Mathematics Level 1 or 2” with a minimum score of 500 points in each section). The two sections “Evidence-Based Reading and Writing” and “Math” of the SAT Test can be replaced by the ACT Test with a minimum score of 20.

### **English Language certificate**

**DUE TO THE COVID-19 LOCKDOWN APPLICANTS ACCEPTED TO PREPARATORY YEAR CAN SUBMIT THEIR IELTS SCORE WITHIN THE YEAR OF ADMISSION.**

**IELTS (academic) 5.5 or higher is mandatory to progress to the First Level of the Bachelor of Science (B.Sc.) programs at TTPU. DUE TO THE COVID-19 LOCKDOWN APPLICANTS ACCEPTED TO THE FIRST LEVEL CAN SUBMIT THEIR IELTS SCORE BY THE END OF 2020.**

Допускаемые сертификаты английского языка и случаи исключения перечислены [здесь](#)

<https://didattica.polito.it/cla/en/certificates>.

The equivalent English Language Certificates and exemption cases can be found at <https://didattica.polito.it/cla/en/certificates>.

### **Tuition fee**

The tuition fee per 1 Academic Year for all courses of the Bachelor of Science (B.Sc.) is **28 500 000 (twenty eight million five hundred thousand) UZB sums.**

## **CONTACTS**

For more information regarding the application process and any other queries, please contact directly to Turin Polytechnic University in Tashkent at:

E-mail: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz)

Tel: +99871 246-63-48, +99871 246-80-52